

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14518160>

BO'LINMALARNI TOG'LI HUDUDLARDA QO'LLASHGA TA'SIR QILUVCHI ASOSIY OMILLARI

Yuldashev T.K

O'R QK Akademiyasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tog'li hududlarning o'tuvchanlik sharoiti va bo'linmalarning harakatlariga ta'sir qiluvchi asosiy omillari to'g'risidagi ma'lumotlar, tog'li hududlarda bo'lib o'tgan mahalliy urushlar va qurolli to'qnashuvlar tajribasi, tog'larning o'ziga xos qulaylik va kamchiliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar: adir, qattiq jism, baland qoya, tik nishablik, cho'qqi, tabiiy to'siqlar, jarlik, qo'chki, tosh uyumi, qor uyumi, sirpanchiq, sel, daryo, o'zan, dovon.

Аннотация: в статье речь идет о факторах, влияющих на применение подразделений в горной местности и об особенностях применения техники в горах,

с учетом опыта современных боевых действий.

Ключевые слова: гора, высота, холм, склон, вершина, естественные препятствия, овраг, сель, снежные обвалы, перевал.

Abstract: the article deals with the factors influencing the use of units in mountainous areas and the peculiarities of the use of equipment in the experience of modern combat operations.

Key words: mountains, hills, rock, cliff, a steep ramp to the top, natural obstacles, armored equipment, rocky ground, a pile of snow, slippery, mud, river, channel, steep terrain.

Tog'li hududlarni qo'shilmalarining mahalliy urushlar, qurolli to'qnashuvlarda texnikalarni qo'llashga ta'sir qiluvchi omillari sifatida – joydan o'tish sharoitlari, niqoblanish va qurollardan otish sharoitlari, hamda texnikani moxirlik bilan boshqarish, muhandislik to'siqlari tizimini o'rnatish va suv bilan ta'minlash omillari katta ta'sir ko'rsatadi.

Tog'li hududlarda o'tish sharoiti - bu tog'li hududlarda texnikalarni harakatiga imkon berishi yoki qiyinlashtirishi mumkin. Bu yo'llarning mavjudligi bilan aniqlanadi. Tog'ning o'tish mumkinligini baholashda jangovar va zirxli texnikalarning taktik - texnik tasniflari va yil fasli hamda ob-havo sharoitlari hisobga olinadi. Shu sababli tog'li hududlarda yo'lsiz joylarda texnikalarning harakatlanishi qiyin kechadi. Tog'lar qanchalik baland bo'lishi bilan shunchalik yo'l tarmoqlari ta'minoti kamayib boradi, bo'linmalarining texnikalarda o'tish darajasi pasayib boradi. Baland tog'li hududlarda jangni tashkillashtirish va olib borishda hamda qo'shinlarni boshqarishda, aloqa va har tomonlama ta'minot o'rnatish uchun faqatgina piyoda va ulov yo'lakchalaridan hamda so'qmoqlardan foydalanish mumkin. Asosiy magistral yo'llar vodiylarda bo'lib ular davonlarga olib boradi, ikkinchi darajali yo'llar va so'qmoqlar o'tish uchun birmuncha noqulay bo'lib ular tog' yonbag'ri qiyaliklar bo'ylab hamda tog' tizmalarining cho'qqilariga yo'naltirilgan bo'ladi.

Tog' yo'llari ko'pgina qismlari ko'rish hususiyati cheklangan, juda tik bo'lgan balandliklar va kichik radiusli burilishlardan, sirpanchiqlardan iborat. Tog' yo'llarning kengligi 4-6 m, baland tog'li hududlarda esa 3-5 metrni, tashkil qiladi. Ushbu yo'llarning burilish radiusi 10-20 metrdan, oshmasligi yo'lni o'tish kengligini qiyaligi esa 20 % gacha bo'lishi mumkin. Agar taqqoslaydigan bo'lsak avtomobil yo'llarining burilish radiusi 60 m, o'tish qiyaligini ko'pi bilan 9 % deb oladigan bo'lsak bu hududdan keng gabaritli texnikalarni o'tishi cheklanadi.

Tog' yo'llarida texnikalarni qo'llashni o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ularning yuk ko'tarishi 20-25 % gacha va harakat tezligi esa, tekislikga nisbatan taxminan ikki barobarga kamayadi. Qiyaligi 5-10° bo'lgan balandlikka chiqish va tushushda avtomobil texnikalar kollonnasining tezligi 15-18 km/s dan oshmaydi.

Tog‘li hududlarda barcha texnikalarni yoqilg‘i sarflashi miqdori ko‘payadi, qor bosgan tog‘li yo‘llarda esa 75 % gacha yetishi mumkin [1].

Yuqorida aytilganlardan tashqari, tog‘li hududlarda g‘ildirakli va zanjirli texnikalar o‘tish imkoniyati bo‘lmagan xududda harakatni ot-ulov transportida davom ettirish mumkin.

Tog‘li hududlarda o‘tuvchanlik sharoiti – Ikkinchi jahon urushi va mahalliy urushlar tajribasidan kelib chiqib, tog‘li hududlarda jangovar harakatlarni muvoffaqiyatli amalga oshirish faqatgina ushbu operasialarni tayyorlash va o‘tkazish xususiyatlarini har tomonlama o‘rganishlarni hisobga olgan holda amalga oshirilgan. 1942-1943 yillarda Sovet armiyasining Kavkaz va Qrim tog‘laridagi operasialari bunga misoldir. 1942-1943 yillarda Kavkaz uchun jang ikkinchi Jahon urushi jarayonida jiddiy burilish yasadi. Sovet Ittifoqi bu jangda yutqazadigan bo‘lsa, butun ikkinchi jahon urushi yutqazilishi mumkin bo‘lgan. Kavkaz operasiasini ikkinchi jahon urushida 1942 yil 25 iyundan 1943 yil 9 oktabrgacha davom etgan. 1942 yil avgust oyi oxirida Lavrenti Beriya mudofaani tayyorlashda umumiy rahbarlik qilish uchun Kavkazga yetib kelgan. Uning ko‘rsatmasi bilan Kavkaz tizmasi dovonlaridagi jangovar zirxli texnika va artilleriya harakatlari chegaralangan mudofaa chiziqlarida muhandislik to‘siqlar tugunlari zichligi oshirilgan, dushman asosiy kelish yo‘nalishidagi baland tog‘li qoyalar portlovchi vositalar yordamida portlatib dushman tirik kuchlari va jangovar texnikasiga katta talofat yetkazilgan, yo‘l tarmoqlarida sun‘iy to‘siqlar hosil qilish orqali o‘tuvchanlik sharoitiga chuqur ta’sir o‘tkazish tajribasi takomillashtirilgan va amaliyotda qo‘llanilgan [2].

Tog‘li hududlarda himoyalash sharoiti - Tor tog‘ vodiysini (darasini) himoya qilishda vodiya o‘zaro o‘q otishni ta’minlanishi uchun o‘q otish vositalari, qurollar tog‘larning qo‘shni yon bag‘irlariga kesishgan holda joylashtirilishi lozim. Vodiya kirishni ta’minlovchi balandliklar yuqori darajada mustahkam egallanilishi zarur. Hukmron balandliklar va ularga yondashgan tepaliklar o‘t ochish uchun qulay sharoit, shuningdek tankka qarshi qurollar bilan hududni berkitilishga keng imkoniyat

tugʻdiradi. Ushbu hududda ajratilgan artilleriya vositalari asosan toʻgʻridan-toʻgʻri otish uchun qoʻllaniladi.

Obʻektlarni va harakatlanayotgan kolonnalarni qoʻriqlash boʻyicha katta tajriba bu Afgʻonistondagi jangovar harakatlarda orttirilgan boʻlib, misol sifatida Termiz-Qobul yoʻlining oʻtish qiyin boʻlgan qismi bu Hindu Kush togʻ tizmasida boʻlib, uning eng baland qismi Salang dovoni orqali taxminan 4 km balandlikdan oʻtgan. Ushbu hududda Sovet qoʻshinlari kolonna himoyasini quyidagicha tashkillashtirgan: kolonna boshida bitta zirhli transportyor bosh dozor, oxirida esa ikkita zirhli transportyor ort dozori sifatida qolgan texnikalar kolonna boʻylab teng taqsimlangan boʻlib har bir boʻlinma kolonnasi oldida oʻt ochish imkoniyatini hisobga olgan holda bittadan tank harakatlangan. Ushbu koʻrinishdagi oʻziga xos saflanish, kolonnada harakatlanayotgan mashinalarga dushman tomonidan talofat yetkazish darajasini bir muncha kamaytirgan. Dushman toʻsatdan hujum uyushtirganda, kolonnani dushman olovi ostidan chiqib ketishini taʼminlash vazifasi, jangovar vertolyotlar va alohida tayinlangan motooʻqchi boʻlinmalarga, shuningdek kolonnadagi mavjud barcha oʻt ochish vositalariga yuklatilgan [3].

Togʻli hududlarda orientirlash sharoiti – togʻli joyning bu xususiyati turgan nuqtaning oʻrnini va harakat yoʻnalishini gorizont tomonlariga nisbatan, atrofdagi mahalliy predmetlar va obʻektlar ham oʻz qoʻshinlari va dushman qoʻshinlariga nisbatan aniqligiga asoslanadi. Ular togʻ relʼefining xarakterli elementlari bilan joyda orientir sifatida foydalanish uchun oʻz koʻrinishi bilan yaqqol ajralib turadigan tosh uyimlari, alohida koʻzga tashlaniladigan katta toshlar va choʻqqilar mavjudligi bilan, hamda oʻsimlik qoplami bilan farq qiladi. Ushbu tavsiflar joyni aniq orientirlashda ijobiy taʼsiri qiladi.

Togʻli hududlarda kuzatish sharoiti - bu togʻli joyning xususiyati dushmanning togʻli hududda joylashgan kuchi qurol-aslaxalari, texnika vositalari haqida maʼlumotlar olish bilan asoslanadi. Ular atrofni koʻrish darajasi, uzoqligi va togʻ relʼefi xarakteri, oʻsimliklar qoplami, vodiylarda aholi yashash joylari hamda meteorologik sharoitlari bilan aniqlanadi. Togʻli joyda jarliklar, balka, balandliklar, daraxtlar va

butali o'simliklar, vodiylarda har xil turdagi qurilishlar qancha ko'p bo'lsa kuzatish sharoiti shuncha noqulay bo'ladi.

Qo'shnlarni tog'li hududlarda niqoblanish xususiyati - qo'shnlarning tog'li hududlarda joylashishi va harakati dushmanga ko'rinmasligi bilan xarakterlanadi. Ular tog' rel'efi formasi, tabiiy pana joylar mavjudligi, o'simliklar qoplami, aholi yashaydigan vodiylar bilan belgilanadi. qo'shnlarning dushman ko'ziga ko'rinmasligining eng qulay sharoiti, tog' rel'efining baland va past joylarida tashkil etiladi. Soylar, balkalar, jarliklar bo'linmalarni berkitish uchun qulay sharoit yaratadi hamda boshqarish punkti va qo'shni bo'linmalar bilan yashirin aloqa bog'lashga imkon beradi. Tog'da dushman ko'ziga ko'rinmaslik yil fasliga, sutka va ob-havo holatiga bog'liq bo'ladi.

Masalan, yozda tog'dagi bargli daraxtlar bo'linmalarni dushman ko'ziga ko'pinmasligini nafaqat tog'da, balki havodagi kuzatuvidan ham ta'minlaydi, qishda esa xuddi shu tog' qor qoplami fonida jangovar va zirxli texnika osongina ko'rinib turadi.

Tog'li hududlarda otishini boshqarish sharoiti – tog'li joyning bu xususiyati qurol vositalarini yashirin joylashtirish, to'plar va o'q otar qurollardan maksimal uzoqlikga otish hamda otish yo'nalishini to'g'rilashni ta'minlaydi. Ular asosan tog' rel'efi xarakteriga va o'simliklar qoplamiga hamda ob-havo sharoitiga bog'liq, bo'ladi. Otishni boshqarish sharoitini aniqlashda dushman va o'zimizning qo'shinlar joylashgan joyda shunday maydonni tanlash kerakki, undan o'q-otar qurollar va tankka qarshi vositalardan o'qqa tutish va otishni boshqarish uchun eng qulay pozitsiya tanlanishi zarur bo'ladi.

1981 yil Afg'onistondagi jangovar harakatlarda razvedka rotasi kolonnani dushman olovi ostidan chiqishga muvofaq bo'lgan. 1981 yil boshida rotaga kerakli yuklar va anjomlar bilan 120 tadan ortiq texnikadan iborat kolonnani, Maymendagi qismiga Andxoy yo'nalishi bo'ylab olib borishi vazifasi yuklangan. Yo'lning uzunligi 110 km. Kolonna xavfsiz harakatini ta'minlash maqsadida muhandis-sapyor seksiyasi, havo hujumidan mudofaani ta'minlash uchun ZSU-2-4 hisobi qo'shib berilgan. Yurish

uchun asbob-uskuna, qurol-yarog'ni jangovar qo'llashga shay holatga keltirishga alohida e'tibor qaratilgan. Kolonna Davlatobod hududiga yetganda jangarilar tomonidan o'q otar qurollardan o'qqa tutilgan. Ikkita mashina jangovar qobiliyatini yo'qotgan. Kolonna uch qismga bo'lib qolgan. Ushbu holatda dushman olovi ostidan kolonnani olib chiqish rota komandirning o't ochish vositalarini to'g'ri taqsimlagani va o't ochishni mohirlik bilan boshqargani natijasida dushmanning bir guruhini Davlatobodning g'arbiy qismida yakson qilishga erishgan. Keyingi hal qiluvchi harakatlari natijasida dushman batamom yakson qilingan. Tajriba shuni ko'rsatadiki jangda g'alabaning asosi bu, komandir tomonidan vaziyatni to'g'ri baholanganligi, kuch va vositalarni to'g'ri taqsimlanganligi va boshqaruvni ushlab qolganligi hisoblanadi [4].

Tog'li hududlarda muhandislik qurilmalar bilan jihozlash sharoiti – tog' yer osti suvlari, qurilish materiallarining mavjudligi, hamda tabiiy va sun'iy pana joylarning xarakteri to'siqlarga bog'liq bo'ladi. Kolonna uchun yo'l tayyorlash, okoplar qazish, transheya, shaxsiy tarkib va jangovar texnikaga pana joylar yaratilishida ish hajmi joydagi tuproq, tarkibi bilan aniqlanadi. Tog'da qurilish materiallarining yog'och, tosh, shag'al va boshqalar mavjudligi muhandislik qurilmalarini jihozlash hajmi va muhlatini belgilaydi.

Jangovar tajriba shuni ko'rsatadiki, birinchi eshelonda harakatlanadigan bo'linmalar ikkita vazifani – dushman oloviga qarshi kurashish va dushmanni yo'q qilish, shuningdek minalardan tozalash, to'siqlarni ochish hamda harakatni tiklashni amalga oshirdilar. Shuning uchun, birinchi eshelondagi artilleriya, tanklar, havo hujumidan mudofaa tizimlari aviatsiya bilan qo'llab-quvvatlandi, ular zirhli texnikalarda harakatni qo'llab-quvvatlash va tankka qarshi zaxira bilan mustahkamlandi.

Xulosa

XX asr oxiri XXI asr boshlaridagi tog'li hududlarda olib borilgan mahalliy urushlar va jangovar harakatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, jang davomida yuqori darajadagi ma'naviy-jangovar sifatlarga ega bo'lishlik, vaziyatni har tomonlama

yaxshi o'rgangan holda jangni to'g'ri tashkil eta olish, tashabbuskorlik, qat'iylik, jasurlik ko'rsatib, jangovar qobiliyat va to'satdanlikka erishish orqali muvaffaqiyat qozonish mumkin.

Tog'li xududlarni taktik xususiyatlari va uni umuqo'shin bo'linmalarining jangovar zirxli texnikalari harakatlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy omillarni doimiy baholab borishi va kerakli tadbirlarni o'tkazish (jangovar va zirxli texnikalarni kerakli anjomlar bilan jihozlash: tros, belkurak, lom, arra, tog'da qo'lbola to'xtatish vositasi) talab qilinadi. Tog'li hududlarda texnikalarni joyning tabiiy-geografik shart-sharoitlaridan hamda taktik vaziyatlardan kelib chiqqan holda qo'llash lozim.

Tog'li hududlardagi jangovar harakatlar muvaffaqiyati barcha harbiy xizmatchilarning malakasiga, bilimiga va tajribasiga ham bog'liq bo'ladi. Shuni aytish joizki, murakkab sharoitlarda jangovar harakatlarga tayyorgarlik va uni olib borishning samarasini oshirish, ayniqsa so'nggi jangovar harakatlar tajribasini o'rganish, tahlil qilish va amaliyotga tadbiriq etish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunga albatta, harakatlar hududini to'liq va chuqur o'rganish, unda jang olib borish bo'yicha tajribaga ega bo'lish va vaziyat sharoitidan kelib chiqib, jangni to'g'ri tashkil etish orqali erishiladi. Tog'li hudud jangovar harakatlarga o'z ta'sirini o'tkazibgina qolmay, balki jangni tashkillashtirish va olib borishga qulay sharoit ham yaratib berishi mumkin.

Bugungi kunda mintaqamizning janubiy tog'li hududlaridagi har xil turdagi qurolli to'qnashuvlar tajribasi tahlili buning yaqqol misoli bo'lishi mumkin va bu tahlillar barcha bo'g'indagi komandirlardan tog'li hududda jang olib borish va unda bo'linmalarni ishonchli boshqarishni tizimli o'rganib borishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Latipov, F.A. Harbiy topografiya: o'quv qo'llanma. / F.A. Latipov, R.M. Navro'zov, E.I. Idiev, A.A. Nuraev, Q.B. Urunboev. - T.: O'R MV, 2012. - 140 b.
2. Шевченко, О.Н. Условия проходимости в горной местности [Электронный ресурс] / О.Н. Шевченко // - Режим доступа: http://www.k2x2.info.ru/usloviya_proxodimosti_v_gornoy_mestnosti/gornaya_podgotovka.
3. Барвиненко, В.В. Главная [Электронный ресурс] / В.В. Барвиненко // Воздушно космическая оборона. - 2015. - № 6. - Режим доступа: https://www.vko.ru/voyni_i_konflikti.
4. Евгений, Г.Н. Эволюция форм и способов боевых действий [Электронный ресурс] / Г.Н. Евгений // Воздушно космическая оборона. - 2009. - № 1. - Режим доступа: http://www.vko.ru/afganskaya_kompaniya_nevostrebovanniy_opit_-5.